limga doir platformalari o‘zaro muloqotni kuchaytiradi va ko‘plab imkoniyatlar yaratadi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ommaviy tarizda xizmat ko‘rsatishga yordam beradi. Onlayn darslar o‘quvchilarga masofadan turib o‘qish imkonini beradi hamda o‘qituvchilar bilan qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Ta’limni boshqarish tizimi (Learning Management Systems, LMS) ta’lim xizmatlarini taqdim etishni o‘z ichiga olgan tizimdir. Dastlab, bu tizimdan faqat o‘quv markazlari, oliy ta`lim muassasalari tomonidan foydalanilgan bo‘lsa, hozirga kelib yirik kompaniyalar undan foydalanishni boshladilar. Hozirgi tendentsiya masofadan o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, bu LMS tobora ko‘proq qo‘llanilishida aks etadi. Shunday qilib, ushbu tizimning rivojlanishi kompaniyalarga o‘z xodimlari uchun malaka oshirish platformasini joriy qilish imkonini beradi. LMSning asosiy vazifasi mavjud bilimlarni boshqarishdan iborat. Hozirgi kunda o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va sifatli kadrlarni tayyorlash uchun LMS tizimlarini yaratish nafaqat elektron ta’limning dasturiy platformasini ishlab chiqish, balki elektron ta’lim jarayonini boshqarish va bilim olish, axborot olish uchun samarali muhitni yaratishdir. Shu sababli zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, keng qamrovli LMS tizimlarini yaratish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlar, maktab o‘quvchilar va talabalar, kurs ishtirokchilari va o‘quv mashg‘ulotlarini amalga oshirishdagi eng muhim bosqich elektron ta’limni boshqarish tizimini ishlab chiqishdir [20;25-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi kunda aloqa va ma’lumot olish nternet va gadjetlar orqali tobora ko‘proq amalga oshirilmoqda. Elektron ta’lim bu zamonaviy multimedia va kommunikatsiya texnologiyalarining har qanday yutuqlaridan foydalangan holda o‘rganishdir. Axborot rivojlangan jamiyatlarda ta’limning boshqa elektron bo‘lmagan shakllari qolmagan: axir, agar zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonining, hech bo‘lmaganda, ba’zi jihatlarida, hatto elektron pochta, mobil telefon yoki ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etsa, bu allaqachon juda samarasiz shaklda elektron ta’lim imkoniyatlarining o‘z o‘zidan rivojlanishiga misoldir.

•**Kelajak istiqbollari.** Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kelajakda ta’lim sohasini yanada tubdan o‘zgartirishga qodir.

•**Rivojlanish.** Zamonaviy texnologiyalar ta’lim sohasida rivojlanishni davom ettirishga va yangi yondashuvlar ushbu jarayonni yanada yaxshilashga yordam beradi.

•**Muammolar.** Texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq muammolar, axborot xavfsizligi, o‘quvchilarning o‘zaro aloqasini zararli holatlarda saqlash doimo dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Akhmedov, B.A., Majidov, J.M., Narimbetova, Z.A., Kuralov, Y.A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), p. 805–808.

(2). Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси. Т., 2019 (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ5847-фармонига илова).

(3). Jahon Banki ta’lim islohotlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 21-may 2018-yil kun.uz

(4). UNESCO – Ta’limda AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) 29-noyabr, 2024.

(5). Ta’lim komissiyasining hisoboti (2016).

(6). Global ta’limni kuzatish hisoboti (UNESCO) 20-may 2024-yil.

(7). Global Learning XPRIZE havola

(8). Theirworld – Code Clubs va Kano Loyihasi havola

(9). O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi havola

(10). https://www.ziyonet.uz

Madaminov Azimbek Egamberganovich (Urganch davlat Pedagogika instituti dotsenti)

JISMONIY MADANIYAT TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH PARAMETRLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borishlarining parametrlari haqida fikrlar bayon etiligan bo‘lib, unda jismoniy madaniyat ta’limi yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalarining ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlarda ilmiy tadqiqot ishlarning dastlabki bosqichlari haqida bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, talaba, pedagogik, ta’lim, tizim, ilmiy faoliyat, xorijiy tajriba, kasb, jarayon, mexanizm.*

ПАРАМЕТРЫ НАУЧНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В статье описаны параметры исследований в области физкультурного воспитания студентов, а также даны рекомендации по начальным этапам исследовательской работы в области физкультурного воспитания студентов.*

Ключевые слова: *физическая культура, студент, педагогика, образование, система, научная деятельность, зарубежный опыт, профессия, процесс.*

PARAMETERS OF SCIENTIFIC RESEARCH OF STUDENTS OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION

Annotation. *This article describes the parameters of research in the field of physical culture education of students, and provides recommendations on the initial stages of research work in the field of physical culture education of students.*

Key words: *physical culture, student, pedagogy, education, system, scientific activity, foreign experience, profession, process.*

Kirish. Bugungi kunda nafaqat jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishini, balki boshqa ta'lim yo'nalishilarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan qator (referat, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari hamda pedagogik va malakaviy amaliyot) ilmiy tadqiqoti ishlarni amalga oshirishida talabalar o'z faoliyatida muammolariga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sabab talabalar tomonidan bajariladigan ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir. Shuningdek, talabalar tomondan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari avvalo, biron fan tarkibda alohida mavzu sifatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki har bir insondan o'zi bilmagan va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so'rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish mumkin. Shu uchun mazkur jarayoni amalga oshirishida, talabalar bilimni takomillashtirishda har bir fan mazmundan kelib chiqib, referat, mustaqil ta'lim, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari qay tartibida rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berishi lozimligini izohlash lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5924-farmonida "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini ilmiy-uslubiy ta'minlashi, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishi va sportda yuqori natijalarini qo'lga kiritish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, yosh mutaxassislarini ilmiy va ta'lim dasturlarda ishtirok etishini ta'minlash" choralarini ko'rish borasida ko'rsatmalar berilgan.[1]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tahlillarga ko'ra, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etish tizimni takomillashtirish muammosi yetarlicha tadqiq qilinmaganligi mazkur jarayonni keng qamrovli o'rganish va takomillashtirishni talab etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jismoniy madaniyat ta'lim sohasi talabalarning ma'lum sabablariga ko'ra, ushbu yo'nalish o'quv rejasida belgilangan fanlardan qoldirilgan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish yuzasidan yoziladigan dastlabki (kichik) izlanish turi hisoblanadi.

Referat tayyorlashda talaba o'z fikrlarini yozma bayon qilish jarayonida ko'rib chiqilayotgan muammoni nazariy jihatidan anglashi, ijtimoiy hayoti, voqea va hodisalar tahlilda o'z bilimlarini ishlata olishi, mavzuni idrok etishida mustaqil tushunchaga ega bo'lishi, manba va adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini egallash, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi bo'yicha o'rganilayotigan fanning aniq bir muammosini o'rganib chiqib, uni bexato bayon qilishga o'z e'tiborini qaratishi kerak.[2] Talaba xulosa, umumlashtirish, tavsiyanomalarini bayon qila bilishi, shuningdek, ilmiy ma'lumot qismni to'g'ri yorita olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, referat mavzuni tanlash ishining juda mas'uliyatli bosqichdir. Talabaga kafedra tomonidan tavsiya etilgan o'rganilayotgan fanga aloqador boshqa mavzularini mustaqil tanlash huquqi berilgan. Bu holda referat mavzusi ma'ruzani yoki seminarni olib boruvchi o'qituvchi bilan kelishilishi kerak. Bu talabaga referat rejasi, asosiy maqsadini va adabiyotni to'g'ri tanlashiga yordam beradi.

Talabalar tomonidan referat yozishi tartibi o'zlashtirilgandan so'ng, uni kichik ilmiy izlanishi sifatda e'tirof etishi mumkin. Bu esa keyingi o'quv jarayonlarida tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlaridan tayyorlanadigan mustaqil ishlarni bajarishda fundament vazifasi o'taydi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". "Xalq so'zi", 2020, 24-yanvar.

[2] Ziyomuhammadov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 2000, 126-bet.

Jismoniy madaniyat ta'lim sohasi talabalarning o'qitilayotgan fan bo'yicha mustaqil ishi tayyorlash bugungi kunda dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Talabalar tomondan bajariladigan mustaqil ish guruhda ishlashi bilan bir qatorda, o'quv jarayonning shakllardan biri bo'lib, uning ajralmas qismdir. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar tomonidan rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, jismoniy madaniyat mutaxassisligi o'quv rejada mustaqil ish hajmni o'quv bo'limlari va o'quv muassasasining metodistlari tomondan rejalashtirish zarur. Mustaqil ish talabalarining rejalashtirilgan ish bo'lib, u o'qituvchilarning ko'rsatmasi va uslubiy rahbarligi, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim nafaqat har bir fanni o'zlashtirishi uchun, balki, umuman olganda, o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyatida mustaqil ishlash ko'nikmalarni rivojlantirishi, masuliyatini o'z zimmasiga olishi, muammoni mustaqil hal qilish, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan ayrim masalalariga yechim topish kabi bir qator ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan, ya'ni, mustaqil ishni tayyorlashida jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalish professor-o'qituvchilarning nazoratida belgilangan tartibda amalga oshirilsa, talabalarni keyingi bosqich, ya'ni kurs loyihani tayyorlash bo'yicha muammolari yuzaga kelmasligi mumkin.

Kurs loyihalari va ishlari o'quv vazifasi xarakteriga ega bo'lgan individual topshiriqlari bo'yicha olib boriladi. Uning vazifasi, odatda, o'quv fanning muammolari tarkibini aks ettiradigan tarzda tuziladi. Kurs loyihasi (ish) jarayonida talabalar obyekt (jarayon)ni loyihalashni, usulini o'zlashtirishni o'rganadilar, mavzuga oid farmon, qaror, me'yoriy va zaruriy adabiyotlardan, foydalanishni o'rganadilar, mavzuda ko'tarilgan masalani turli diagrammalar, chizmalar orqali asoslashni o'rganadilar.[1] Odatda, kurs ishi talabalar tomnidan olib boriladigan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishning 2-, 3- va 4-kurslarida "Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi", "Sport va o'yinlarini o'qitish metodikasi" va "Sport mahoratini oshirish" kabi fanlaridan kurs loyiha ishlari talabalar tomondan tayyorlanadi.

Kurs ishlari – bu tor mavzudagi kichik ilmiy tadqiqoti bo'lib, o'quv dasturda keltirilgan mavzular bo'yicha kurs loyiha ishlari tayyorlash jarayonida talaba asta-sekin oddiy usullarni o'zlashtirib borib va keyinchalik murakkab tadqiqot usullaridan foydalanishni o'zlashtiradi.[2] Talabalar tomonidan tayyorlangan kurs ishlari mustaqil ilmiy tomon bosilgan birinchi qadam hisoblanadi.

Talabalar tomondan tayyorlangan kurs loyihalarida ishlab chiqilgan ilmiy muammolar, qoida tariqasida, amaliy tavsiyaga ega bo'lib, keyinchalik, yanada chuqurroq tadqiqotlar mavzusiga aylanishi mumkin, ko'pincha, bitiruv malakaviy ishi bilan yakunlanadi.

Bitiruv malakaviy ish "Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash tartibi haqida Nizom" asosida tayyorlanadi. O'quv yili uchun yakuniy attestatsiya sinovlarining dasturlari va bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinadi va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy metodik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Bitiruv malakaviy ishlar mavzulari ta'lim muassasasining bitiruvchilarni tayyorlovchi kafedralar tomonidan mutaxassislarga talabgorlarning talablarini, shuningdek, zamonaviy fan, texnika, texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ish bu o'quv yurtida o'qishning oxirgi bosqichida qo'llaniladigan tashkiliy shakl bo'lib, talabalar tomonidan diplom loyihalari yoki diplom ishlari bajarilishidan iborat bo'lib, uning asosida Yakuniy davlat attetatsiyasi komissiyasi talabalarga mutaxassislik malakasini berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bitiruv malakaviy ishiga didaktik maqsadlari quyidagilardan iborat:

–bilimlarni kengaytirish, birlashtirish va tizimlashtirish, aniq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolarni, shuningdek, mutaxassislik yuzasidan vazifalarini hal qilish uchun kasbiy ko'nikma va malakalarni oshirish; mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

–bitiruvchilarning malaka talabida nazarda tutilgan yo'nalishlar bo'yicha mustaqil ishlashga tayyorlik darajasini tekshirish va aniqlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bitiruv malakaviy ishning vazifalari sifatida jismoniy tarbiyaga oid biror ixtisoslik sohasi bo'yicha ishni tayyorlash ilmiy tadqiqot va amaliy ishlarda bilimlarni mustahkamlash, mustaqil holda ma'lumotlarni izlash va muayyan muammolarni yechish, tanlangan mavzu bo'yicha kasbiy, pedagogik va psixologik kategoriyalar, hodisalar va muammolar mohiyatini ochish, mavjud materiallarni tizimlashtirish, tahlil qilish va qayta ishlash, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va boshqalardan iborat

---

[1] Слобадчиков В.И. Инновационное образование. "Школьные технологии", 2005, № 2, 4–12 с.

[2] Мкрытичян Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. "Педагогика", 2001, № 5, 45–50 с.

hisoblanadi. Bu esa talabalarning kelgusi kasbiy faoliyatida mustaqil ilmiy tadqiqot ilarini olib borish malakalarini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan metodik taviyalarni hal etish natijasida jismoniy madaniyat sohasi talabalarining ilmiy faoliyatini tashkil etishda va ta'lim samaradorligini oshirishda, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, oliy ta'lim muassasalar tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ziyomuhammadov B. Abdullayeva Sh. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 2000, 126-bet.

(2). Слобадчиков В.И. Инновационное образование. "Школьные технологии", 2005, № 2, 4–12 с.

(3). Мкрытичян Г.А. Параметры педагогической экспериментальной деятельности. "Педагогика", 2001, № 5, 45–50 с.

(4). Подласый И.П. Педагогика. 2-х томах, М., "Владос", 2004, 572 с.

Karimboyev Og'abek Qadamboyevich (Urganch davlat Pedagogika instituti o'qituvchi-stajori)

YUQORI SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH BO'YICHA SPORT SINOVLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha sport sinovlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, ilg'or ilmiy manbalar, shuningdek, amaliy tajribalar asosida yuqori sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan sport sinovlarini o'tkazishning shakl va usullari ishlab chiqiladi. Mazkur metodika o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy faolligini oshirish hamda sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *yuqori sinf o'quvchilari, jismoniy tayyorgarlik, sport sinovlari, baholash metodikasi, sog'lom turmush tarzi, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik monitoring.*

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ИСПЫТАНИЙ ДЛЯ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ

Аннотация. *В данной статье на научной основе анализируется методика организации и проведения спортивных испытаний для оценки уровня физической подготовленности учащихся старших классов. В исследовании на основе действующих нормативно-правовых документов, передовых научных источников, а также практического опыта разрабатываются формы и методы проведения адаптированных спортивных испытаний для старшеклассников. Данная методика имеет важное значение для укрепления здоровья учащихся, повышения их физической активности и формирования ориентации на здоровый образ жизни.*

Ключевые слова: *учащиеся старших классов, физическая подготовка, спортивные испытания, методика оценки, здоровый образ жизни, нормативно-правовые документы, педагогический мониторинг.*

METHOD FOR ORGANIZING AND CONDUCTING SPORTS TESTS TO ASSESS THE LEVEL OF PHYSICAL PREPARATION OF HIGHER-GRADE STUDENTS

Annotation. *This article scientifically analyzes the methodology for organizing and conducting sports tests to assess the physical fitness level of high school students. The study develops forms and methods for conducting adapted sports tests for high school students based on existing regulatory docu-ments, advanced scientific sources, as well as practical experiences. This methodology is of significant importance in strengthening students' health, increasing their physical activity, and guiding them towards a healthy lifestyle.*

Keywords: *High school students, physical training, sports tests, assessment methodology, healthy lifestyle, regulatory legal acts, pedagogical monitoring.*

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologiyalar asrida yosh avlodning jismoniy salomatligi, harakat faolligi va sportga bo'lgan qiziqishi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda [3,6,7]. Ayniqsa, maktabning yuqori sinf bosqichida o'quvchilarning sog'lom hayot tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, jismoniy rivojlanish darajasini doimiy kuzatib borish muhim vazifalardan biridir [2,3,5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan qarorlari, xususan, "Yoshlar sog'lom bo'lsa – millat kelajagi porloq bo'ladi" degan g'oya bu sohadagi islohotlarning poydevoriga aylandi [1,2].